

**GAPNING AKTUAL BO'LAKLARGA BO'LINISH NAZARIYASINI
O'RGANISHDA YANGI YONDASHUVLAR**

Sapayeva Barno Shanazarovna,

Ma'mun universiteti

Urganch, O'zbekiston

E-mail: sapayeva_barno@mamunedu.uz

ORCID 01009-0001-6461-252X

Annotatsiya. Ushbu maqolada gapning aktual bo'laklarga bo'linish nazariyasi haqida qisqacha ma'lumot beriladi, ushbu nazariyaning tarixiy taraqqiyoti yoritiladi va zamonaviy lingvistika doirasida unga nisbatan paydo bo'lgan yangi yondashuvlar tahlil qilinadi. Yevropa va rus tilshunosligi doirasidagi ilmiy qarashlar bilan bir qatorda, o'zbek tilshunosligidagi holatlar ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: aktual bo'linish, tema-rema, fokus, informativ struktura, kommunikativ-pragmatik yondashuv.

Tilshunoslikda gapning semantik va kommunikativ tuzilishini o'rghanish muhim ahamiyatga ega. Gapning aktual bo'laklarga bo'linishi, ya'ni tema va rema (yoki matnning axborot tuzilishi) nazariyasi XX asrda shakllanib, zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda alohida o'rin egallaydi. Bu nazariya nafaqat sintaktik va semantik, balki pragmatik va kognitiv yondashuvlar doirasida ham chuqur tadqiq etilmoqda [6, 55-61].

Izlanishlar samarasi o'laroq, gapning aktual bo'linishi to'g'risidagi qarashlar yangicha tamoyillar asosida rivojlandi va bugungi kunga kelib, matn tilshunosligi va tarjimashunoslik sohalari doirasida yuzaga kelgan bir qancha muammolarning yechimi uchun yana ham dolzarblik pog'onasiga ko'tarildi. Zero, gapning pragmatik-kommunikativ jihatlarining formal-grammatik tuzilishga nisbatan munosabatidagi umumiyligi va xususiy jihatlarini, aktuallashtiruvchi vositalarni tilning barcha sathlarida, ayniqsa, tillararo chog'ishtirma planda yanada chuqurroq o'rghanish turli lingvomadaniyat vakillari o'rtasidagi muloqotda, u qanday ko'inishda bo'lmasin, kommunikativ maqsad nuqtai nazaridan adekvatlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir.

Aktual bo'linishning muloqotdagi rolini chuqur tadqiq qilish zamonaviy matn tilshunosligi oldidagi dolzarb vazifadir. Shu sababga ko'ra, tema-rematik konsepsiya deyarli bir asrdan buyon o'rghanilayotgan bo'lsa-da, alternativ tushunchalar o'rtasidagi chegaralar ancha chalkash, chunki bu borada izlanish olib borgan olimlar ko'pincha tema-remani turli janrlarda turli evrilishlar bilan namoyon bo'lishini hisobga olmaganday go'yo.

Gapning aktual bo'linish nazariyasiga ilk bor F. Danes va V. Matezius singari Praga maktabi vakillari tomonidan asos solingan. Ular gapni tema va rema kabi bo'laklarga ajratish g'oyasini ilgari surib, informatsion tuzilmani muhim deb baholaganlar [2].

Ushbu yondashuv keyinchalik rus tilshunosligida N.S. Valgina, O.I. Moskovich va T.A. van Deyklarning ishlari orqali rivojlantirildi. Masalan,

Valginaning fikricha, tema bu — gapda allaqachon ma'lum bo'lgan yoki kontekstdan ayon bo'lgan qism, rema esa — yangi ma'lumotni bildiruvchi bo'lakdir [1].

Gapning kommunikativ strukturasiga nisbatan psixologik yondashuv yuqorida keltirilgan g'oyalar asosida rus tilshunoslari tomonidan ham rivojlantirilgani alohida e'tiborga molikdir. Masala ustida tadqiqot olib borgan ko'plab tadqiqotchilar F.Fortunatov va A.M.Peshkovskiy tadqiqotlarida ham yuqoridagi kabi talqinlarni uchratish mumkinligini ta'kidlaydilar. Xususan, A.M.Peshkovskiy bu boradagi fikrlari diqqatga sazovor. Olim ta'kidlashicha, jumla kontekstdan ayro holatda, har xil talqin qilinishi mumkin bo'lgan konstruksiya tusini oladi. Har qanday sintaktik ma'nosi ikki yoqlama bo'lgan gaplarda ma'noni aniq qilib beruvchi vositalar quyidagilardir: 1) so'z tartibi; 2) intonatsiya; 3) so'z birikmalarining yondosh shakllar bilan yoki boshqa lug'aviy tarkib (bu yerda: kontekst) bilan assotsiatsiyasi. Kesimning nafaqat grammatik, balki psixologik tushuncha ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, fikrni so'zda yetkazib berish jarayonini tilning grammatik vositalaridan ayro holda ham tahlil qilish mumkin ekanligini ko'ramiz. Biroq psixologik ega va kesim grammatik ega va kesim bilan doim ham mos kelavermasligini hisobga olsak, ularning tashqi belgilarini aniqlab beruvchi omillar ham juda muhim ekanligini ko'ramiz.

Gapning kommunikativ tarkibi borasidagi qarashlar atoqli chex tilshunosi V.Matezius izlanishlari samarasini o'laroq yangi pog'onalarga chiqdi. E.L.Ping ta'kidlashicha, Praga maktabi tilshunoslari tema va rema tushunchalari ustida tizimli va keng miqiyosda tadqiqot olib borishni o'z maqsadi deb bildilar. Mazkur maktabning diqqat markazida funksionalizm, ya'ni «ko'zlangan natijaga erishish uchun tahlilchi qabul qilishi kerak bo'lgan kontekstga bog'liq murakkab yondashuv va qarorlar» turar edi [5, 25]. Praga maktabi tilshunoslari olib borgan tadqiqotlarning o'ziga xos tomoni shuki, ular kelgusidagi tadqiqotlar uchun muhim asos yaratdilar va gapning aktual bo'linishi hodisasini keng qamrovda ta'riflab berdilar.

Bugungi kunda gapning aktual bo'linishini o'rganishda nafaqat strukturaviy, balki pragmatik va diskursiv yondashuvlar ham qo'llanilmoqda. Masalan, P. Lambrecht [4] tema-rema konsepsiyasini informatsion tuzilmaning kognitiv modeli sifatida izohlaydi. Uning fikricha, gapdagi informatsiya tuzilmasi auditoriya uchun qanday yangilikni ifodalashi bilan belgilanadi.

Shuningdek, interaktiv kommunikatsiya, mediada axborot uzatish va mashina tarjima tizimlarida tema-rema ajratish texnologiyalari keng qo'llanilmoqda. Kompyuter lingvistikasi doirasida esa fokus va fon ma'lumotlarining avtomatik aniqlanishi taddiq qilinmoqda [3].

O'zbek tilshunosligida ham gapning aktual bo'linishiga oid tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, A.A. Madvaliyev, N. To'xliyeva, G. Qodirova kabi olimlarning ishlari ushbu yo'nالishda muhim hisoblanadi.

N.To'xliyeva o'z tadqiqotida tema va remaning o'zbek tiliga xos sintaktik belgilari, ularning intonatsion xususiyatlarini o'rgangan va tema-remaning joylashuvi so'z tartibiga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilgan [7, 72-80].

Bugungi kunda diskurs tahlili, korpus lingvistikasi va nutq sintaksisi doirasida gapning informativ strukturasini avtomatik aniqlovchi algoritmlar ishlab chiqilmoqda. Bu esa lingvistik tahlillarda an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda, texnologik vositalardan foydalanishni taqozo etmoqda.

Gap tuzilishida tema va remaning joylashuvi masalasiga keladigan bo'lsak, tema va rema munosabatining ifodalanishida so'z tartibi muhim rol o'ynaydi. O'zbek tilida odatdagi so'z tartibi subyekt-obyekt-predikat shaklida bo'lishiga qaramay, kontekstga qarab bu tartib o'zgarishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, rema bo'lib kelayotgan so'z yoki so'z birikmasini oxirgi pozitsiyaga joylashtirish orqali ifodalanadi. Masalan, "Bolalar o'yinchoqni sindirishdi" gapida 'bolalar' tema, 'o'yinchoqni sindirishdi' esa rema bo'lib xizmat qiladi. Agar e'tiborni boshqa bo'lakka qaratmoqchi bo'lsak, so'z tartibini o'zgartirishimiz mumkin: "O'yinchoqni bolalar sindirishdi". Bu yerda esa 'o'yinchoqni' remaga aylanishi mumkin. Bunday o'zgarishlar nafaqat sintaktik, balki kommunikativ maqsadlarga bog'liq.

Shuningdek, tema va remaning lingvistik ifodalanishida intonatsiyaning ham ahamiyati katta. Gapda logik urg'u berilishi orqali rema bo'laklari ajratiladi. Intonatsiya orqali rema ajralib turadi va axborot oqimi tinglovchiga tushunarli tarzda yetkaziladi. Bu xususiyatlar fonetik va kommunikativ aspektida ham chuqr o'r ganilmoqda.

Gapning aktual bo'laklarga bo'linish nazariyasi lingvistikaning turli sohalarida qo'llanilib, u doimiy rivojlanib bormoqda. Yangi yondashuvlar orqali bu nazariya yanada mukammallashmoqda. Ayniqsa, o'zbek tilshunosligida ham bu yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. Kelgusida tema-rema munosabatlarini korpus lingvistikasi va sun'iy intellekt texnologiyalari orqali tadqiq etish istiqbollari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Валгина Н.С. Теория синтаксиса современного языка. – Москва: Логос, 2002.
2. Daneš, F. Functional Sentence Perspective and the Organization of the Text. - The Hague: Mouton, 1974.
3. Firbas, J. Functional Sentence Perspective in Written and Spoken Communication. - Cambridge University Press, 1992.
4. Lambrecht, K. Information Structure and Sentence Form: Topic, Focus, and the Mental Representations of Discourse Referents. - Cambridge University Press, 1994.
5. Ping A.L. Theme and Rheme: An Alternative Account. – Bern: Peter Lang, 2004. – 299 p.
6. Qorayeva, N. Gapning aktual bo'linishi va uning o'zbek tilidagi ifodalanishi. Filologiya masalalari, 1(4), 2020. – 55-61 b.
7. To'xliyeva, N. O'zbek tilida tema va rema munosabatining intonatsion va sintaktik ko'rsatkichlari. O'zbek tili va adabiyoti, 3(2), 2019. – 72-80 b.